

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

O'qituvchi va talabalar o'rtaсидаги конфликтлар

Safarova Jasmina Alisher qizi

Namangan Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada ta'lim faoliyati jarayonida, Oliy o'quv yurtlarida, o'qituvchi va talabalar o'rtaсиda sodir bo'ladigan nizolar, uni keltirib chiqaruvchi omillar, konflikt haqida turli xil qarashlar va o'tkazilgan tadqiqot natijasida ayrim xulosa va takliflar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Konflikt, o'qituvchilar, talabalar, tashqi muhit, moddiyat, xulqatvor, nizo, ijtimoiy omil.

Конфликты между учителями и учениками

Сафарова – дочь Ясмины Алишер.

Студент Наманганского государственного университета

Аннотация: В статье освещены конфликты, возникающие в процессе образовательной деятельности, между преподавателями и учащимися, факторы, вызывающие их, различные взгляды на конфликт, а также некоторые выводы и предложения по итогам проведенного исследования.

Ключевые слова: Конфликт, преподаватели, учащиеся, внешняя среда, материальность, поведение, конфликт, социальный фактор.

Conflicts between teachers and students

Safarova jasmina alisher's daughter

Student of namangan state university

Annotation: In the article, conflicts that occur in the course of educational

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

activities, in higher educational institutions, between teachers and students, the factors that cause it, different views on the conflict, and some conclusions and suggestions as a result of the conducted research are highlighted.

Key words: *conflict, teachers, students, external environment, materiality, behavior, conflict, social factor.*

Kirish:

Har bir talabalik baxtiga musharraf bo'lgan yoshlar, Oliy ta'lim dargohiga ezgu niyyatlar ila borishadi. Har kuni yangidan yangi bilim va tajribalarga ega bo'ladi. O'qituvchilar bilan maruza va seminar jarayonlarida ma'lum bir muhitlarda muloqotga kirishadi. Ammo ushbu jarayonlar davomida ayrim bir kelishmovchiliklarga yuzaga kelayotganini kurishimiz mumkin. Ya'ni o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi konfliktlar. Konflikt- lot.to'qnashuv so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ikki yoki undan ko'p taraflarning fikr, g'oya yoki manfaatlari to'qnashganda, qarama-qarshi holatda yuzaga keluvchi hodisa. Ta'lim jarayonlarida konfliktli holatlarning sodir bo'lishi, o'quv jarayonlariga, talaba va o'qituvchilarning kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zaro hurmatni yo'qolishiga sababchi bo'ladi. Bu vaziyatlar faqatgina nizoga sababchi shaxslarga ta'sir ko'rsatibgina qolmasdan, qolganlarning ham o'sha o'qituvchi yoki talabaga nisbatan fikrlarida tub burilish yasashi mumkin.

Asosiy qism:

Hech bir inson o'zini konfliklardan doimiy muhofaza qilinganman deb hisoblay olmaydi. Chunki konfliktlar bazan qo'qqisdan, hech kutilmagan holda vujudga kelishi mumkin. Aynan o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi konflikli holatlar ham aynan bir mavzuda, turli fikr va qarashlar to'qnashuvi natijasida yuzaga keladi. Konflikt inson haqidagi fanlar tizimida o'ziga xos tarzda chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. Jumladan falsafa, sotsiologiya, psixologiya fanlari bilan bevosita bog'liq. Konfliktlar yuzaga kelishida bir nechta sabablar bo'ladi. Misol uchun:

Mojoro: Konfliktni vujudga kelishidagi birinchi shakl mojorodir. Mojoro konfliktning asosi hisoblanib, uni negizida ikki tomon uchun to'qnashuvni keltirib

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

chiqaruvchi omillar mavjud bo'ladi.

Norozilik: Ikkinchi shakl norozilik bo'lib, bir-biridan norozilik natijasida kelib chiquvchi noxush kayfiyatni soz yoki hatti-harakat bilan bildirish natijasida konflikt yuzaga keladi. Lekin norozilik hamma vaqt ham konfliktni vujudga keltirmasligi mumkin.

Kelishmovchilik: Konflikni vujudga keltiruvchi uchinchi shakl kelishmovchilik bo'lib, fikrva qarashlarni to'g'ri kelmasligi natijasida shaxsiy fikrga qarshi davening mavjudligidir. Ikkinchi tomonning fikr va qarashlariga aks tasir natijasida ham konfliktni vujudga keltiruvchi omillar vujudga keladi.

Ta'lim va tarbiyaning samarasi hamda ta'sirchanligi, avvalo, o'qituvchiga, uning intellectual salohiyatiga, kasbiy tayyorgarligiga va pedagogik mahoratiga bog'liq. O'qituvchi ijodiy fikrlovchi, ya'ni umuminsoniy va milliy qadryatlarni, dunyoviy bilimlarni mukkamal eggalagan bo'lishi kerak. O'z xulqi, odobi, axloqi, tajribasi bilan talabalarga namuna bo'lishi va o'z navbatida talabalarda ham ushbu hislatlarga mos bo'lishi kerak. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi", "Qars ikki qo'ldan chiqadi" va hokoza kabi ibratli maqollar ko'p. Darhaqiqat, konflikt va nizolarning kelib chiqishida ham yakka shaxs aybdor bo'ladi deb aytal olmaymiz. Har ikkila tomonda ham ozgina bo'lsada kelishmovchiliklar bo'ladi.

Dastlab konflikt ko'p tabaqali ijtimoiy hodisa sifatida Shotlandiya faylasufi Adam Smitning "Xalq boyligining mohiyati va sabablariga oid tadqiqot" ishida o'r ganilgan. Uning fikricha, konflikt asosida jamiyatning sinflarga bo'linishi va iqtisodiy raqobat yotadi.

Konfliktlarni namoyon bo'lish turiga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin:
1.agonistic-murosaga keladigan, 2.antagonistik-murosasiz.


O'qituvchi nizolashishda o'z pozitsiyasini to'g'ri aniqlay olishi kerak. Agar guruh jamoasi uning tarafida ishlayotgan bo'lsa, unda bu vaziyatda eng yaxshi yo'lni toppish osonroq bo'ladi. Agar guruh intizomni buzgan shaxs bilan bir xil fikrda bo'lsa bu salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Biz ta'lim jarayonida O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi konfliktlar mavzusida anketa so'rov nomalari o'tkazdik. Va natijada talabalarning bu mavzuda

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

fikrlarini o'rganib chiqdik. Natijalar ijobiy chiqdi. Ya'ni bizning oliv dargohimizda, O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi konfliktlar kam va bu jarayonlar katta salbiy tus olmaydi degan xulosaga keldik. Misol uchun 1-savolimiz ya'ni

O'quv dargohingizda tez-tez konfliktli vaziyatlarga guvoh bo'lasizmi? degan savolimizga o'tkizilgan tadqiqot natijasida talabalarning javoblarini ushbu diagramma asosida mumkin.



Xulosa:

Jamiyatimiz keng qamrovli bo'lib, u yerda turli xil xarakterdagи shaxslarni ushratishimiz mumkin. Shaxslararo konfliktlar albatta faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kichik kelishmovchiliklarga ham katta muommo sifatida qaramasligimiz kerak. Hayot konfliktlarga to'la. Yoshligimizdan hatto ushbu vaziyatlarni boshimizdan o'tkazganmiz. O'yinchoq talashib kim biladir tortishganimizdan boshlangan desak ham bo'laveradi. Konflikt Oliy ta'lim uchun odatiy hol bo'lishi mumkin. Lekin kichikdan kattaga qarab bormasligi uchun nazoratdan chetta qoldirmasligimiz kerak. Bu holatning keskin darajada ortib borishiga yo'l qo'yimaslik zarur. Bu holat ta'lim jarayoni sifatining tushib ketishiga olib keladi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Buning uchun O'qituvchi va talabalar o'rtaida to'g'ri muloqot yo'lga qo'yilishi va konfliktli vaziyatlar va uning oqibatlari haqida tushintirish ishlari olib borilishi kerak deb o'layman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedov M.T Pedagogik konfliktologiya. O'quv qo'llanma- Adabiyot uchqunlari. Toshkent.sh 2017yil.{117,b}
2. O'Zme Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. Korostelina and Simone Lassig. History Education and post Conflikt Reconcilitation. USA Canada. 2013
4. Abdullayeva D.U, Kamilova N.G' Ijtimoiy psihologiya(konfliktologiya). Darslik Toshkent: TDPY 2022
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Konflikt>